

Uzbekistan Airways aviaqatnovlariga ro'yxatdan o'tish

2023 11 Aprel

Yo'lovchilarning reyslarga kechikishi bilan bog'liq vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun Uzbekistan Airways parvozdan oldin ro'yxatdan o'tish qoidalarini eslatib o'tadi.

Aviakompaniyaning barcha xalqaro aviaqatnovlari uchun ro'yxatdan o'tish jo'nash vaqtidan 3 soat oldin boshlanadi va 40 daqiqa oldin tugaydi. Shaharlarda: Nyu-York, Frankfurt, Istanbul, Dubay, Sharja, Kuala-Lumpur, Seul, Dehli, Bangkok, Rim, Milan, Tel-Aviv, Pekin, Sankt-Peterburg, Jidda va London kabi shaharlardagi aeroportlarda ro'yxatdan o'tish parvozdan 4 soat oldin boshlanadi va undan 1 soat oldin tugaydi.

Uzbekistan Airways mahalliy reyslarida ro'yxatdan o'tish jo'nash vaqtidan 2 soat oldin boshlanib, 30 daqiqa oldin tugaydi. Shuningdek, ichki aviaqatnovlarga aviakompaniyaning rasmiy veb-saytida onlayn tarzda ro'yxatdan o'tish mumkin. Onlayn ro'yxatdan o'tish parvozdan 24 soatdan boshlanadi va undan 2 soat oldin tugaydi. Ushbu xizmat ayrim toifadagi yo'lovchilar uchun cheklangan. O'zbekiston Respublikasi bo'ylab parvozlarga ro'yxatdan o'tish va ularning qoidalari bilan quyidagi havola orqali tanishishingiz mumkin:

<https://www.uzairways.com/uz/onlayn-royxatdan-otish>